Bolalar Muqaddas Kitobi
Tasvirlab beradi



# Ma'bad Rahbari Iso Oldiga Keldi

...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan illustrasiya qilingan:
Byron Unger; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
M. Maillot; Sarah S.

Alastair Paterson

...tomonidan ishlab chiqarilgan:
Bible for Children  www.M1914.org

©2020 Bible for Children, Inc.
Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin. Lekin u sotilmaydi.

Bir kuni, Iso Ma’badga borganida, odamlar Xudoning Uyiga hurmatsiz munosabatda bo’lishayotganini ko’rdi.



Axir Ma’badda ba’zilar hayvonlarni sotishar, boshqalari esa u erda pul almashtirishar edi.



Tayoqlardan xivchin yasab, Iso u savdogarlarni Ma’baddan quvib chiqardi. “Bularni bu erdan olib keting,” deb buyurdi Iso.



“Otamning Uyini savdoxonaga aylantirmang.” Iso Otasining Uyini yaxshi ko‘rardi.





U erdagi rahbarlar Isodan Ma’badni tozalashga huquqi borligini isbotlash uchun mo‘jiza ko‘rsatishni talab qilishdi.



“Bu Ma’badni vayron qiling va Meni uni uch kun ichida qayta tiklayman,” deb javob berdi Iso.



Bo'lishi mumkin emas! Bu Ma'bad qirq to'rt yilda qurilgan.

Ammo Iso O‘z tanasi haqida gapirayotgan edi.  Ma’bad kabi, Uning tanasi Xudo yashaydigan makon edi.



Iso xochda o'lsada,
Xudo Uni uchinchi
kuni tiriltirishini
bilardi.





Kech paytida, Ma'bad rahbarlaridan biri Isoning oldiga keldi.



Iso ko'rsatgan
mo'jizalar
tufayli
u kishi
Isoni Xudo
yuborganligiga
ishonardi.



Nikodimus Isoning oldiga Xudo haqida o'rganish uchun kelgandi.



Iso Nikodimusga insonlar Xudoning Shohligiga kirishi uchun qayta tug'ilishlari kerakligini aytdi.



Nikodimus tushunolmadi. Ulg‘aygan odam yana qanday qilib chaqaloqqa aylanishi mumkin?



Bundan tashqari, Nikodimus dindor edi. Dindorlikning o'zi yetarlik emasmi?



"Faqat
ruhdan
tug'ilgan
ruhdir," deb
tushuntirdi
Iso.
"Xudoning
Ruhi shamol
kabidir.



Insonlar shamolni ko'ra olishmaydi, va tushunishmaydi ham. Ular faqat shamolning ta'sirini ko'rishadi."



Iso Nikodimusga Isroil xalqi ancha oldin Muso payg'ambarga nolishganini eslatdi.



"Bizda na ovqat, na suv bor, Xudo bizga bergan nonni yomon ko'ramiz" deb ular nolishgan edi.


Insonlarning gunohi
Xudoni g'azablantirdi.
Xudo ularning orasiga ilonlarni
yubordi.

Ilonlar ularni chaqqanda, ko'plar vafot etdi.




"Biz gunoh qildik. Ilonlardan xalos qilgin deb Xudoga ibodat qilgin," yolvordi ular.



Shunda Muso ular uchun ibodat qildi. Lekin Xudo ilonlarni olib tashlamadi.


Xudo Musoga
ilon yasab uni
xodaga mahkamlab
qo'yishni buyurdi.


“Ilon tishlagan
odamlardan kimki
xodadagi ilonga qarasa,
omon qoladi,” deb va’da
berdi Xudo.


Muso bronzadan ilon yasadi va o'sha ilonga qaraganlar shifo topishdi.


Iso Nikodimusga
Inson O'g'li
xuddi bronzadan
yasalgan ilon kabi
ko'tarilishi
kerakligini
aytdi.



U gunohkorlar uchun xochda o'lishini haqida gapirib berdi.


Iso shunday
dedi, “Xudo olamni shunchalar sevdiki, O’zining Yagona O’g’lini berdi, ...


… toki unga ishongan
har bir kishi
o'lmay, abadiy
hayotga ega
bo'lsin."


Buning ma'nosi shuki, Isoga ishongan har bir inson Xudoning oilasiga tug'iladi.

Balki Nikodimus o'sha kuni kechda Isoning shogirdiga aylangan.




Ammo yillar o'tib, Nikodimus xochda
mixlangan Xudoning O'g'lini ko'mishga
yordam berishi orqali,
Isoga ishonganini
va Uni sevganini
ko'rsatdi.

Shundan so'ng, Iso va Uning shogirdlari shimol tomon jo'nab ketishdi.



Chunki shunda boshqalar ham Xudoning Shohligi haqidagi xabarni eshitib, ...



... Xudoning O‘g‘li bo‘lgan Nosiralik Isoga ishonish imkoniga ega bo‘lishardi.



# Ma’bad Rahbari Iso Oldiga Keldi

Hikoya Xudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Yuhanno 2-3 boblar,
Sahroda 21-bob

“Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar.”
Zabur 119:130

# Hikoya tugadi

Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko’p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o’lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O’zining Yagona O’g’lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o’ldi. U tirilib yana Osmonga ko’tarildi. Unga ishongan kishi halok bo’lmaydi balki abadiy hayotga ega bo’ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so’rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting: Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing! Yuhanno 3:16